

JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHDA XALQARO HAMKORLIK

Rahmatov Shoxrux Shukrullobek o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kursanti

Annotatsiya: Ushbu maqolada jinoyatchilikka qarshi kurash tushunchasi, uni o‘ziga xos xususiyatlari, jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida hamkorlik tushunchasi va uning yo‘nalishlari, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan xalqaro tashkilotlar faoliyati haqida fikrlar ketirilgan. Shuningdek jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi xalqaro hamkorlikni takomillashtirish borasidagi takliflar aks etgani.

Kalit so’zlar: Jinoyat, jinoyatchilikka qarshi kurash, jinoyatchilikka qarshi kurash sohasoda halqaro hamkorlik, jinoaytchilikka qarshi kurashish yo‘nalishlari, Birlashgan millatlar tashkiloti, Interpol va uning faoliyati, O‘zbekiston Respublikasining jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida xalqaro shartnomalari.

Abstract: This article discusses the concept of fighting crime, its characteristics, the concept of cooperation in the fight against crime and its directions, and the activities of international organizations operating in this field. Suggestions for improving international cooperation in the fight against crime are also reflected.

Key words: Crime, fight against crime, international cooperation in the fight against crime, directions of fight against crime, United Nations, Interpol and its activities, international agreements of the Republic of Uzbekistan in the field of fight against crime.

Bugungi kunda jinoyatchilikka qarshi kurashish global vazifa bo‘lib, shu munosabat bilan davlatlar o‘rtasidagi hamkorlik masalalari alohida ahamiyat kasb etib bormoqda. Bunday hamkorlikka ehtiyoj, ayniqsa, xalqaro jinoyatchilik tahdidlarining kuchayishi tufayli yaqqol namoyon bo‘ladi. Jinoyatchilikka qarshi kurashish barcha davrlarda ham davlatning jiddiy va muhim masalasi hisoblanib kelangan. Yangi O‘zbekistonning ustuvor vazifalaridan biri ham jinoyatchilikka qashi kurashish va uni oldini olishdan iborat. Ushbu vazifani amalga oshirish maqsadida bir qancha tizilmi chora tadbirlar ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq etilmnoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miromonovich: “Agar hamma birdekk jon kuydirib, oilalar muammolaridan to‘liq xabardor bo‘lib, ularni hal etishga ko‘maklashgan, jinoyatchilikning barvaqt oldini olganda edi, bugun natijalar umuman boshqacha bo‘lardi. Afsuski, jinoyatchilikka qarshi kurashishda haligacha eskicha ishlash tizimidan voz kecha olmayapmiz. Huquqni muhofaza qiluvchi idoralar bu faoliyatga ko‘rsatkichlarni oldingi davr bilan taqqoslash orqali baho berib kelmoqda. Aslida bitta bo‘lsa ham jinoyat bo‘lgani hammamizni tashvishga solishi kerak” — deya ushbu sohada yangi tizimni joriy etish va hamkorlik masalalariga katta e’tibor qaratmoqda.

Hozirgi vaqtida jinoyatchilikka qarshi kurash ko‘pgina davlatlarni o‘zaro hamkorlikka chaqirmoqda. Zero jinoyatchilikka qarshi kurash jahon hamjamiyating xavfsizligini ta’minalash bilan bog‘liq bo‘lgan hamkorlikning o‘ziga xos shaklidir. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham Insonning huquq va erkinliklarini ta’minalash davlatning oliy maqsadi ekanligi shu bilan birlgilikda O‘zbekiston Respublikasi davlatning, xalqning oliy manfaatlaridan, uning farovonligi va xavfsizligidan kelib chiqqan holda ittifoqlar tuzishi, hamdo‘stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi hamda ulardan chiqishi mumkinligi belgilangan. Binobarin jinoyatchilikka qarshi kurash nafaqat mamlakatimizni balki

butun dunyoni o‘zaro birdamlikka, ushbu global muammoni hal qilishda hamkorlikka chorlamoqda.

Jinoyatchilikka qarshi kurash o‘zi nima?

Barchamizga ma’lumki O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida jinoyat tushunchasiga ta’rif beriladi. Unga ko‘ra Jinoyat kodeks bilan taqiqlangan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo‘llash tahdidi bilan jinoyat deb topiladi. Yuqorida qayd etilgan ijtimoiy xafli qilmishlarni oldini olish jinoyatchilikka qarshi kurashning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Jinoyatchilikka qarshi kurash – jinoyat sodir etilishiga imkoniyat tug‘diruvchi faktorlarni bartaraf qilish hamda jinoyatning oldini olish, ochish, jinoyatchilarни qidirish shu bilan birga tergov qilish, odil sudlovni amalga oshirish, jinoyat sodir etgan shaxsni tuzatish, jazoni o‘tab chiqqanidan so‘ng ularni ahloqini nazarat qilish, shu bilan birgalikda jinoyatni salbiy oqibatlarini tugatishga qaratilgan huquqiy, ruhiy, iqtisodiy-siyosiy hamda tashkiliy choratadbirlar yig‘indisi hisoblanadi. Yuqoridagi ta’rifga asoslaning jinoyatchilikka qarshi kurash keng qamrovli tushuncha ekani shu bilan birga u o‘z ichiga quidagi bir qancha funksiyalarini qamrab olishini ko‘rshimiz mumkin:

- jinoyatlarning oldini olish;
- jinoyatlarni tez va to‘la ochish;
- jinoyat sodir etgan shaxslarni fosh etish;
- jinoyat sodir etib qochib ketgan, tergov va sud organlaridan, jazoni ijro etishdan bo‘yin tovlayotgan shaxslarni qidirib toppish;
- jinoyat sodir etgan shaxslarni axloqan tuzatish;
- jinoyat sodir etgan shaxs keyinchalik o‘zi tomonidan ham, boshqalar tomonidan ham yangi jinoyat sodir etilishini oldini olish va boshqalar.

Jinoyatchilikka qarshi kurashining asosiy vazifasi jinoyatchiliika barham berish bilan birgalikda har qanday turdagи jinoyatlarning oldini olish, fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘ini, mol-mulkini muhofaza qilish, ularning huquq va erkinliklarini cheklanishiga yo‘l qo‘ymaslikdir.

Jinoyatchilikka qarshi kurashda xalqaro hamkorlik

Jinoyatchilikka qarshi kurashda xalqaro hamkorlik - xalqaro miqyosda davlatlarning, davlatlararo tuzilmalarning, xalqaro tashkilotlarning jinoyatchilikni oldini olish, unga qarshi kurash, barham berish uchun o‘zaro birgalidagi faliyati hisoblanadi. Ushbu sohada hamkorlik xalqaro munosabatlarning muhim yo‘nalishi bo‘lib, xalqaro huquqiy va ichki huquqiy tartibni ta‘minlaydi, xalqaro va milliy xavfsizlikka hissa qo‘sadi. Zero, jinoyatchilikka qarshi kurashda xalqaro hamkorlikdan ko‘zlangan asosiy maqsad xalqaro va milliy xavfsizlikni ta‘minlashdan iborat. Buning uchun xalqaro miqyosda mustaqil davlatlar va xalqaro tashkilotlar birgalikda faoliyat olib bormoqda.

Jinoyatchilikka qarshi kurashda xalqaro hamkorlikning o‘ziga xos shalk va uslublari mavjud bo‘lib, ular o‘zaro hamjihat faoliyat yuritishni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Davlatlar o‘rtasida bir-biriga amaliy yordam ko‘rsatish, o‘zaro axborot almashish kabi hamkorlik

shakllari yuqoridagi fikrlarimizning yaqqol misolidir. Ushbu soxada hamkorlikni yo‘nalishlarga bo‘lib o‘rganish samaraliroqdir. Chunki jinoyatchilikka qarshi kurashishda xalqaro hamkorlik qilish natijasida chiqarilayotgan qarorlar, amalga oshirilayotgan choratadbirlar har bir yo‘nalish uchun asosiy vazifa bo‘lib xizmat qilmoqda.

Jinoyatchilikka qarshi kurashda xalqaro hamkorlik quidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilmoqda:

- jinoyatchilikka qarshi kurash soxasida BMT yo‘nalishidagi xalqaro hamkorlik;
- jinoyatchilikka qarshi kurash soxasida nohukumat tashkilotlari yo‘nalishidagi xalqaro hamkorlik;
- jinoyatchilikka qarshi kurash soxasida Intepol yo‘nalishidagi xalqaro hamkorlik.

Jinoyatchilikka qarshi kurash soxasida BMT yo‘nalishidagi xalqaro hamkorlik

Bugungu kunda jinoyatchilikka qarshi kurashda Birlashgan millar tashkiloti tashkiliy jihatdan rahbarlik qiladi. BMT ustaviga binoan u barcha dolzarb mummolar bo‘yicha davlatlar o‘rtasidagi xalqaro hamkorlik uchun ma’suldir. Uning asosiy vazifalaridan biri davlatlar o‘rtasidagi xalqaro hamkorlikni ta‘minlashdan iborat. Mamlakatlarning jinoyatchilikka qarshi kurash soxasidagi hamkorlik masalalari bilan BMT organlaridan biri – Iqtisodiy va ijtimoiy kengash (EKOSOS) bevosita shug‘ullanadi. U 1945-yil 26-iyunda BMT Nizomi asosida tashkil etilgan bo‘lib, global va o‘zaro xarakterdagi xalqaro iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni muhokama qilish hamda a’zo davlatlarga ushbu masalalar bo‘yicha siyosiy tavsiyalar berish uchun markaziy forum hisoblanadi. BMT bosh assableyasi tomonidan mazkur organ zimmasiga har 5 yilda bir marotaba Jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarlarga nisbatan munosabat bo‘yicha BMT kongresslarini tayyorlash vazifasi yuklatilgan. Ushbu Kongresslar jinoyatchilikning oldini olish, jinoyat adliyasiga oid xalqaro qoidalar, standartlar va tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi vaqtga qadar 12 marta anashunday Kongresslar o‘tkazilgan. Ayni vaqtda BMT va boshqa xalqaro hukumatlararo va nodavlat tashkilotlari jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha samarali xalqaro hamkorlikni tashkil etish va amalga oshirish borasida katta sa’y-harakatlarni amalgaga oshirmoqda. Jumladan BMT Bosh Assableyasi tomonidan qabul qiligan 2000-yil 15-dekabrdagi Uyushgan transmilliy jinoyatchilikka qarshi 55/25 Konvensianing qabul qilinishi ham yuqoridagilarga yaqqol misol bo‘la oladi. Ushbu Konvensianing maqsadi transmilliy uyushgan jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi yanada samarali kurashish bo‘yicha hamkorlikni rivojlantirishdan iborat.

Jinoyatchilikka qarshi kurash soxasida nohukumat tashkilotlari yo‘nalishidagi xalqaro hamkorlik

Jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi xalqaro hamkorlik subyektlari orasida BMT huzurida maslahatchi maqomiga ega bo‘lgan bir qancha tashkilotlar, jumladan Xalqaro miqyosda jinoyatchilikni oldini olish markazi (Vena markazi), BMTning jinoyatchilik va odil sudlov bo‘yicha Rim mintaqaviy ilmiy tadqiqot instituti, Jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha Xelsniki instituti va nohukunat tashkilotlari: jinoyat huquqi xalqaro uyushmasi, jinoyat va penitensiar fondi faoliyat olib bormaqda.

Ular orasida eng asosiyalaridan biri bo‘lgan Jinoyat huquqi xalqaro uyushmasi 1924-yil tashkil topgan. U jinoyatchilikni, uning sabab va sharoitlarini, unga qarshi kurashish vositalari, bartaraf etish yo‘llari va oldini olish choralarini o‘rganadi, jinoyat huquqiy qiyosiy tadqiqotlar

bilan shug‘ullanadi.Bundan tashqari uyushma jinoyat huquqi muammolari bo‘yicha xalqaro Kongresslar o‘tkazilishini tashkil qiladi, BMT, YUNESKO va boshqa xalqaro tashkilotlarga maslahatlar beradi.

Jinoyatchilikka qarshi kurash soxasida Intepol yo‘nalishidagi xalqaro hamkorlik

Xalqaro hamkorlikda xalqaro jinoyat politsiyasi tashkiloti (Interpol) aloxida o‘rin tutadi. U 1923-yilda Venada dastlab xalqaro jinoyat politsiyasi komissiyasi tarzida tashkil topgan. Bugungi kunda u 170 dan ortiq davlatni birlashtiradi. Interpolning oliv organi Bosh assambleya hisoblanadi.

Interpol nohukumat tashkilotidan hukumatlararo tashkilotga aylanib har bir mamlakatda, jumladan O‘zbekiston Respublikasida ham o‘z milliy markaziy buyrosiga(MMB) egadir. Har bir MMB o‘z davlatining huquqni muhofaza qilish organi bilan, xalqaro miqyosda esa boshqa mamlakatlar bilan muntazam hamkorlik qiladi

Interpolning asosiy vazifasi mamlakatlar sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirish va oddiy jinoyatlarga qarshi kurashda yagona siyosat olib borishdan iborat. Interpolga a'zolik Interpol Bosh kotibiyatining barcha ma'lumotlar bazalariga kirish, tashkilotga a'zo mamlakatlar huquqni muhofaza qilish organlari bilan kechayu-kunduz tezkor aloqa qilish, qidiruvda bo'lgan shaxslar va qidiruvdagи shaxslar to'g'risidagi katta hajmdagi ma'lumotlarni xalqaro politsiya darajasiga olib chiqish imkoniyatini beradi. Shuningdek, tashkilot faoliyatiga xalqaro qidiruvlarni muvofiqlashtirish, odam savdosi, uyushgan jinoyatchilik, narkotik moddalar kontrabandası, iqtisodiy va yuqori texnologiyali jinoyatlar, qimmatli qog'ozlarni qalbakilashtirish, bolalar pornografiyasiga qarshi kurashish kiradi. Siyosiy, harbiy, diniy va irqiy xarakterdagi jinoyatlarga ta'sir qilmasdan, o'z faoliyatini faqat oddiy jinoyatlarga qarshi kurashish sohasida amalga oshiradi. Bundan tashqari BMTning jinoyatchilikka qarshi kurashda ishtirok etuvchi subyektlardan yana biri BMTning Narkotik va jinoyatchilikka qarshi kurash tashkiloti (UNODC) hisoblanadi. U 1997 yilda tashkil etilgan, butun dunyo bo'y lab 500 ga yaqin xodimga ega. Uning shtab-kvartirasi Vena shahrida joylashgan bo'lib, u 20 ta ofislarini, shuningdek, Nyu-York va Bryusseldagi aloqa ofislarini boshqaradi. Ushbu tashkilotning asosiy maqsadlari bu – a'zo davlatlarda narkotik moddalarini nazorat qilish, transmilliy jinoyatlar va korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi konvensiyalarning bajarilishiga ko'maklashish, shuningdek jinoiy sud jarayonlarini isloh qilish, terrorizm va odam savdosi kabi illatlarni oldini olishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasining jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida xalqaro shartnomalari

O‘zbekiston Respublikasi ham jinoyatchilikning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashish va unga barham berish maqsadida xorijiy davlatlar va tashkilotlar bilan xalqaro memorandum, shartnomalar bilan tuzilib kelmoqda. Misol uchun O‘zbekiston Respublikasi hukumati bilan Moldova Respublikasi hukumatlari o‘rtasidagi 2000-yilning 19-dekabrda “Jinoyatchilikka qarshi hamkorlik qilish to‘g’risida” Kishinyov shahrida bitm imzolangan bo‘lsa, Kipr Respublikasi hukumati bilan ham 2012-yilning 5-aprel kuni Toshkent shahrida xuddi shunday bitim imzolangan. Turkiya Respublikasi bilan esa 2018-yilda “O‘zbekiston Respublikasi va Turkiya Respublikasi o‘rtasida jinoyatchilikka qarshi kurashishda hamkorlik qilish to‘g’risida bitim” imzolangan. Bundan tashqari mamlakatimiz to‘qonli a’zosi bo‘lgan Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida ham jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida hamkorlik yo‘lga qo‘ylgan bo‘lib, Numbeo tashkilotining dunyodagi jinoyatchilik indeksi bo‘yicha statistik

ma'lumotlariga ko'ra (Crime Index for Country), 2022 yilning birinchi yarmi yakunlariga ko'ra, TDT ishtirokchi mamlakatlarida jinoyatchilik darajasi past hisoblanadi. Mamlakatlar ko'rsatkichi o'rtacha 43 ga teng bo'lib, bu jinoyatchilik darajasi nisbatan past (O'zbekistonda bu ko'rsatkich 33,68 ni tashkil etadi, bu juda yaxshi ko'rsatkich) ekanligini ko'rsatmoqda. Mamlakatimiz ham ushbu sohada hamkorlikka yuqori e'tibor qaratib, turkiy davlatlar bilan ikki tomonlama kelishuvlar (shartnomalar) tuzib kelmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Turkiya (1994), Qirg'iziston (1996), Turkmaniston (1996), Qozog'iston (1997), Ozarbayjon (1997) bilan ham shunday kelishuvlar imzolagan.

Jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi xalqaro hamkorlikni takomillashtirish borasidagi **takliflarimizni** quida qayd etmoqchimiz:

- jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida yagona platforma yaratish va bu orqali davlatlararo uyushgan jinoyatchilikni oldini olish;
- yildan yilga o'sib borayotgan jinoyatlarni dunyo aholisidan ogoh qilish maqsadida butun dunyo bo'yicha "Xavf kitobini" yuritish, ularni jinoyatlarning jabrlanuvchisi bo'lishini oldini olish maqsadida chora-tadbirlar ishlab chiqish;
- jinoyatchilikka qarshi kurashda fuqorolarning faol ishtrokinin ta'minlash, jinoyatlarni fosh etishda yordamlashgan fuqarolarni rag'batlantirish tartibini ishlab chiqish va mukofotlab borish;
- jinoyatchilikka qarshi kurashda xalqaro ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qilishni yanada rivojlantirish;
- jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida xorijiy davlatlar bilan ikki tomonlama maxsus strategik hujjalarni qabul qilish.

O'ylaymizki, yuqorida keltirilgan takliflar albatta o'z samarasini beradi. Mamlakatimizda huquqbarzaliklarni oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida olib borilayotgan tizimli islohotlar faqat va faqat xalqimizning tinchligi va osoyishtaligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu lohiyalardan ko'zlangan yagona maqsad – aholi tinchligini ta'minlash va bu orqali jamiatning barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shishiahdan iborat. Butun dunyonи tashvishga solayotgan jinoyatlarning yildan-yilga oshib borishi esa hammamizni o'zaro hamkorlik qilishga undamoqda. Buning uchun esa barchamiz mas'ulmiz. Zero, "Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish - oliy burch"i bo'lgan har qanday inson yurt taqdiri haqida qayg'urar ekan, uning tinchligi yo'lida beminnat xizmat qilishdan aslo to'xtamaydi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi;
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2018-yil 27- iyul kuni jinoyatchilikning oldini olish, davlat idoralari va jamiatning bu boradagi mas'uliyatini oshirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishidagi nutqi;
4. Kriminologiya. Umumiy qism: IIV oliy ta'lim muassasalari uchun darslik / I. Ismailov, Q. R. Abdurasulova, I.Yu. Fazilov;
5. O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi. Toshkent: „Adolat“ nashriyoti;

PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

1-MAY , 2024

6. Международное сотрудничество государств в борьбе с преступностью / Эльязов О.А;
7. https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/orgcrime.shtml;
8. <https://www.interpol.int/>;
9. www.hpptz.uz/ O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchilik bazasi.